

## BADIIY MATNLARDA SHEVAGA OID SO'ZLAR IZOHI

Hayitova Aziza Parmanqul qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'an Filiali Pedagogika  
va tillarni o'qitish fakulteti filologiya va tillarni o'qitish  
o'zbek tili yo'nalishi talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada biz unchalik ham e'tibor bermaydigan shevaga xos so'zlarning badiiy matnlardagi ro'li ya'ni lirik, epik, dramatik sohalaridagi o'rniga nazar tashlaymiz. Va uning qanday vazifa bajarganligini tahlil qilamiz.

**Kalit so'zlar:** Dealektologiya, shevaga xos so'zlar, asar, lirik, epik, dramatik, jarayon, o'quvchiga ta'siri, tasavvur olami, xarakter, o'ziga hos jihati.

Har bir millat yoki xalqning rasmiy darajadagi davlat tili maqomiga ega tilidan tashqari, o'ziga xos asriy an'alarini davom ettirib kelayotgan, madaniy merosga aylangan shevalari ham bor. Shevalar xalqning, aholining ma'lum bir hudud doirasidagi chegaralangan so'zlashuv uslubi bo'libgina qolmay, kishilarning asrlar osha nutqiy madaniyatini shakllantirgan omildir.

Shevaga xos so'zlar badiiy adabiyotlarda qo'llansa asarning ta'sirchanlik xususiyatini oshiradi. Yozuvchi tasvirlamoqchi bo'lgan holatni yorqinroq qilib o'quvchiga yetkazadi. Asar voqealari qaysi hududda sodir bo'layotganidan darak beradi. O'sha hudud shevasidan va an'alaridan o'quvchiga axborot beradi va albatda o'quvchiga asardagi muhitni tasavvur qilishda alohida yordam beradi.

Shevaga xos so'zlar she'riyat tarkibida qo'llanilganda, she'rga o'ziga xos ajoyib ko'rinish, qiziqarli bo'lish xususiyatini taqdim etadi. Uni o'qigan o'quvchiga esa she'rni tezda yod olish imkoniyatini beradi.

Yana bir ahamiyati shunda- ki, tadqiqotlarga ko'ra, shevalar har bir hudud aholisining xarakteri va ichki dunyosini ifodalay ekan. Masalan, Toshkent va vodi aholisi o'z shevasiga monand muloyim, vazmin xarakterga ega. Xorazm shevasidan bu yerlik aholining xarakteridagi ko'tarinkilikni va biroz yuqori kayfiyatni sezamiz. Samarqand, Buxoro viloyatlarining shevasi esa shu yerlik aholining cho'rtkesarlik xarakterini ifodalagandek go'yo. Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari aholisining shevasidan voha aholisining biroz sodda va dalili- g'ulli ekanliklarini payqash qiyin emas. Aslida bu ham faqat o'zbeklarga xos til va xarakter uyg'unligidir.



Darhaqiqat, albatda biz yuqoridagi fikrlar isbotini lirik, epik, dramatik asarlarda shubhasiz uchrata olamiz. Shunday ekan maqolamiz davomida lirik, epik, dramatik turdagi ijod namunalaridagi dealiktalogiya bilan tanishamiz va tahlil qilamiz.

Dastlab epik turga nazar solar ekanmiz, namuna uchun dealektalogiya sohasidan boshqa adiblarga nisbatan kengroq foydalangan, shu jihati bilan ham yozuvchilar orasida ajralib turadigan sevimli adibimiz Shukur Xolmirzayevning "O'n sakkizga kirmagan kim bor" qissasiga va "Oybek" mukofoti sovrindori, ajoyib adib O'ktam Usmonovning "Girdob" romaniga nazar solamiz.

- Jamshid! Qiziq bo'lyapti. Ke baqqa!

- Yo'ng'ichqaning yomg'irda muloyim bo'lib qolgan kalta- kalta poyalari oyoqqa qadalmaydi- shundoq mayishib yotadi- yu, oyoq olinishi bilan titrab- titrab ko'tariladi- Jamshidning poychasi shimarilgan oyoqlariga, Umidaning oq ko'ylagi etaklariga suv sachraydi.

- Zaynabxon yana yon- beriga qaradi-da, cho'zilib kampirning lo'la- bo'lishini astagina turtdi.

- Tilovning esa kichkinagina ko'zlari birdan qisilib, yapasqi iyagi tirishib ketdi.

- Kecha qor yog'di deb eshitgandim, - dedi Zaynabxon ustuxonni siqimlab ushlab mujiyotgan Jamshidga.

Shu.Xolmirzayev " O'n sakkizga kirmagan kim bor" asaridan.

"Baqqa" so'zi shevaga xos so'z bo'lib, "bu yoqqa" so'zining fonetik hodisaga uchragan shaklidir. Ya'ni bu so'zda -a va -o harflarining almashinishi, - y va - u harfilari tushishi kuzatiladi va natijada bu va yoqqa so'zlari qo'shilib ketgan. Bu so'z shevaga xos so'z bo'lsada biz uchun ma'nosi tanishdir.

"Yo'ng'ichqa" dukkakdoshlarga mansub bir va ko'p yillik o'tsimon o'simlik, asosiy yem- xashak hisoblangan "beda" ma'nosida qo'llangan.

"Lo'la-bolishi" yumshoq shaklda bo'lib, ikki yonboshidan ip yordamida berkitiladigan "yosti" ma'nosida qo'llanilgan.

"Yapasqi" "pas bo'yli", "pastak", "pakana" ma'nosida kelgan.

"Ustixon" so'zi "suyak, so'ngak" ( odatda et bilan birlikda) ma'nosida qo'llanilgan.

"Mujimiq" so'zi "kemirib yemoq", "tizlamoq", "suyak mujimoq" ya'ni, "suyagini ezg'ilamoq" ma'nosida qo'llanilgan.

- Shu- u - uncha yil badaliga endi ishi salgina yurishib, bitta ko'ylagi ikkita bo'lay devdi... bunaqa hunar chiqaryapti...



- Shox chiqmay o'lsin, to'qimi o'zgargani bilan o'zi o'sha- o'sha.
- Qizning pinhona azobidan o'zicha kuyinib butun aybni yana hu birdagidek Azizga ag'dardi-da, yana uning "tagi past"ligidan zorlandi.
- Saltanat o'sha kuni "ayb o'zimda" degani bilan oyisiga munday bir ichini yorib, yuragini ezib yotgan dard- alamlarini ochiq- oydin aytolmadi bari bir.
- Shularning barini bir- bir o'ylarkan, go'yo hadsiz girdob, o'pqn ichiga tushib chiqqanday sezdi o'zini.
- Urug'chilik instituti shahar markazidan xiyla chetda joylashgan, bir tomoni kalxoz dalalariga tutash; ancha ilgari qurilgan bino bo'lsa kerak, derazalari katta-katta, tunuka tomli kiraverishda qavariq gerbli bahaybat kungurasi ham bor.
- Xullas, harna qilgandayam, Shorasul omadli yigit ekan.

[O'.Usmonov "Girdob" romani.]

"Devdi" so'zi "degan edi" so'zining fonetik hodisaga uchragan shakli bo'lib, shevaga oid so'zdir. Degani edi so'zida -v va -g harflari almashinuvi, -a, -n, -e harflari tushishi kuzatiladi.

"To'qim" so'zi "yuzi", "ko'rinishi" ma'nosida qo'llangan.

"Hu birdagidek" so'zi "bir zamonlardagidek", "ancha oldin" ma'nosida qo'llangan.

"O'pqn" suvni tortib ketadigan, yer ostidagi "ko'rinmas chuqurlik", "g'ovak", "bo'sh joy" ma'nosida.

"Kungurasi" so'zi qal'a devorlari yoki imorat aylanasiga, tishga o'xshatib ishlangan "me'moriy bezak", "dabdaba".

"Harna qigandayam" "nima bo'lganda ham" ma'nosida qo'llangan.

Dramaturgiyada dealektalogiyaning qo'llanilishiga nazar soladigan bo'lsak, bunda dealektalogiya dramaning hayotiy va jonli chiqishini ta'minlaydi. Buning aksini teatr aktyori va sevimli yozuvchilarimizdan biri dramaturg Sharof Boshbekovning "Temir xotin" dramasida va taniqli o'zbek shoiri, dramaturgi, adabiy tarjimoni Erkin Vohidovning "Oltin devor" dramalarida ko'ramiz.

- Qumri - (Arazli) Nima qilasiz?

-Qo'chqor- Qo'yvoraman.

-Qumri - Men ham sal- pal qarashvordim...

-Qumri- Voy, o'lay!..(Turib) Siz bilan gap sotib o'tirishimni qarang. Shuncha kundan beri tuz totganingiz yo'q... Hozir biron narsa qivoraman.

[ Sh. Boshbekov " Temir xotin" dramasi.]



" Qivoraman" soʻzi Toshkent shevasiga xos soʻz boʻlib " hozir, tezda tayyorlayman" maʼnosida qoʻllangan.

" Sal- pal" soʻzi " ozgina" maʼnosida kelgan.

- Dilorom- Zormidim jezdani yasalgan

Hiylai aʼmol uchun.

-Nodir- Devor eski, lekin juda ham zarang ekan.

- Abdusalom- Ikki ming! Niyat kardam, biguzoram! Makkai Mukarrama, Madinai munavvara.

E. Vohidov " Oltin devor" dramasi.

"Aʼmol" soʻzi "qilingan" va " qilinadigan" ish( lar); " amal" maʼnosida qoʻllangan.

"Zarang" " zichlanib ketgan" , " qattiq" , " berch" maʼnosida kelgan.

Niyat kardam " men qildim" maʼnoda qoʻllangan.

"Biguzoram" " aytaylik" maʼnosida qoʻllangan.

Nihoyat lirik turfa murojat qilar ekanmiz. Soʻz ustasi, aktyor va shoir Behzod Hamro hamda oʻzbek xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusuf sheʼrlariga nazar solamiz.

Zoʻr kelsa goʻdak ham birlashur,

Kattalar bilan teng bellashur.

Boʻyi gʻoʻzadan past, chillashir

Birinchi sinf bolalari.

[ M.Yusuf "Turgʻunlik"]

Margʻilon havosi eltdi andak,

Maʼyus koʻchalarda yurdim dovdirab.

Hozir Kumush chiqib qoladigandek.

Har eshikka boqdim koʻzim jovdirab,

Chiqsa, Bibi derdim ,

Sheʼrga yor boʻldim,

U bir yuho yangligʻ domigatortar.

Shuhrat yoʻliqqanda doʻstga zor boʻldim.

Qalbimni yolgʻizlik azobi oʻrtar.

[M.Yusuf " Bibi"]

"Andak" soʻzi "biroz", " bir qancha" maʼnosida qoʻllangan.

" Bibi " soʻzi onaning yoki otaning onasi " buvi" maʼnosida qoʻllangan.



G'allaorol bo'lakchasan, ko'rsam seni,  
Ketar dildan katiklarim, o'yiqlari.  
Odamlarning bir ajayip- bir ajayip,  
Juragimda sakrab jurgan kiyimlarim.

[B. Hamro " G'allaorol" ]

Tovlar o'sdi men o'smadim,  
Seni o'ssin dedim bolam.  
Senga ko'proq jediray deb,  
Men o'zimdi jedim bolam.

[B. Hamro "Men o'zimndi jedim,bolam"]

Behzod Hamro she'rlarida qo'llanga sheva bu qipchoq shevasidir va bu so'zlarning ma'nosi biz uchun begona emas albatda.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, ko'rinib turganidek, dealektalogiya she'rlarga ham alohida hayotiylik va jo'shqinlik baxsh etgandir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek shevaga xos so'zlar bir so'z bilan aytganda adabiyotning ajralmas bir bo'lagidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Saylanma: She'rlar. Dostonlar. Xotiralar.-T.:" Sharq", 2007 - 288 b.
- 2.<http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/anons/78>
- 3.Girdob:Roman.-T.:"Sharq"NMK Bosh tahririyati, 2000.352 b.-(XX asr o'zbek romani).
4. Erkin Vohidov "Oltin devor" drammasi 23 b.
5. 9- sinf uchun "Adabiyot" darsligi 2019.366 b.
- 6.O'n sakkizga kirmagan kim bor".qissa./ Sh.Xolmirzayev\_ Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi,2018.-96 b.